

“DAUN” SINDROMI. QUYOSH BOLALARI.

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

“Maktabgacha va boshlang'ish ta'lim metodikasi”

kafedrasi PhD dotsent M. U. Xamidova

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Special pedagogy fakulteti talabasi

Nuriddinova Sarvinoz G'olibbek qizi

[*vaziranuriddinova0@gmail.com*](mailto:vaziranuriddinova0@gmail.com)

+998908240550

Annotatsiya. Maqolada Daun sindromli bolalar xususiyatlari va bu kasallikning kelib chiqish sabablari, ularni ijtimoiy hayotga moslashuvi, shuningdek, bunday bolalarga jamiyatning munosabati, ularga ta'lim-tarbiya berish va har tomonlama korreksiyalash haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'z. Daun, korreksiya, statistika, kognitiv rivojlanish, ta'lim-tarbiya, psixologik rivojlanish, genetika.

Абстрактный. В статье рассматриваются особенности детей с синдромом Дауна и причины этого заболевания, их адаптация к социальной жизни, а также отношение общества к таким детям, их обучение и всесторонняя коррекция.

Ключевое слово. Даун, коррекция, статистика, когнитивное развитие, образование, психологическое развитие, генетика.

Abstract. The article discusses the characteristics of children with Down syndrome and the causes of this disease, their adaptation to social life, as well as the attitude of society to such children, their education and comprehensive correction.

Key word. Down, correction, statistics, cognitive development, education, psychological development, genetics.

Daun sindromi — tug'ma oligofreniyaning bir shakli hisoblanadi. Bunda boladagi aqliy zaiflik bilan birga uning tashqi qiyofasi ham o'ziga xos ko'rinishda bo'ladi. Qarama-qarshi jins vakillining normal gametasi bilan birlashganda, zigota 47 ta xromosomal bo'lib qoladi. Daun kasalligiga yo'liqqan bolalar nafaqat ruhiy, balki jismoniy jihatdan ham zaif va turli infeksiyon kasalliklarga moyil bo'ladi. Bemorlarni asosan mehnat bilan davolash, maxsus maktablarda o'qitish lozim. Ushbu sindrom 1866-yilda uni birinchi marta tasvirlab bergan ingliz shifokori Jon Daun nomi bilan atalgan. Tug'ma sindromning kelib chiqishi va xromosomalarning sonining o'zgarishi orasidagi bog'liqlik faqatgina 1959-yilga kelib fransuz genetigi Jerom Lejen tomonidan aniqlangan.

Daun sindromi bo'lgan odamlarda quyidagi jismoniy xususiyatlar bo'lishi mumkin: kichik iyak, epikantik burmalar, past mushak tonusi, tekis burun ko'prigi, kaftning bitta burmasi va chiqib turgan til.

Bo'y o'sishi sekinroq bo'ladi, buning natijasida kattalar bo'yi past bo'ladi. Bolaning Daun sindromi bilan tug'ilishining asosiy omili onaning yoshi hisoblanadi. Bu haqda Rossiya Fanlar akademiyasining Tibbiy – genetik ilmiy markazi matbuot xizmati ma'lum qilgan. Mutaxassislarning aytishicha, irqiy kelib chiqish yoki iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlar homilaning ushbu irsiy chetlashish bilan tuglilishiga ta'sir qilmaydi. Biroq hududning an'anaviy va diniy xususiyatlari ahamiyatga ega bo'lishi mumkin, chunki homiladorlikni tugatish qabul qilinmagan hududda bu chetlashishga ega bolalar soni oshib boradi.

Ko'plab davlatlarda homilador ayollarning yoshidan qat'iy nazar, Ularda homilada 21- xromosoma Trisomiyasini aniqlash bo'yicha Tug'ruqqacha skrining o'tkaziladi. Bu sindromni aniqlashning eng samarali usuli noinvaziv prenatal test, ya'ni ona qonidan olingan homila DNKsining tahlili hisoblanadi. Bu tahlilni homiladorlikning 9-haftasidayoq aniqlash mumkin. Oxirgi tadqiqotlarga ko'ra, Daun sindromiga ega odamlarning umr ko'rish davomiyligi tibbiyot rivojlanishi evaziga oxirgi o'n yilliklarda ancha uzaygan. Onaning yoshi ulg'aygan sayin, Daun sindromi bo'lgan bolani tug'ish ehtimoli ortadi. Ammo 35 yoshgacha tug'gan ayollarda ham Daun sindromi bo'lgan bolalar bo'lishi mumkin.

40 yoshlardagi ayollarda 30 yoshli ayollarga qaraganda Daun sindromi bilan bola tug'ilish ehtimoli 40 baravar ko'p;

Ota-onalarning yaqin qarindoshligi;

Irsiy moyillik.

Lekin, oxirgi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Daun sindromi bo'lgan chaqaloqning tug'ilishi ona yoki otaning turmush tarziga bog'liq emas.

Bundan tashqari, Daun sindromi bo'lgan bolalarda jismoniy rivojlanish ko'pincha sog'lom bolalarga qaraganda sekinroq. Misol uchun, mushaklarning zaif tonusi tufayli Daun sindromi bo'lgan bola ag'darilish, o'tirish, turish va yurishni juda sekin o'rganishi mumkin. Ushbu kechikishlarga qaramay, Daun sindromi bo'lgan bolalar boshqa bolalar kabi jismoniy mashqlar bajarishni o'rganishlari mumkin. Daun sindromi bo'lgan bolalarda barcha rivojlanish bosqichlaridan o'tishi uchun boshqa bolalarga qaraganda ko'proq vaqt talab qilinishi mumkin, ammo ular oxir-oqibat bu bosqichlarning ko'piga erishadilar.

Bunday sindromli bolalar psixologik jihatdan tengdoshlaridan orqada qoladilar:

- Diqqatni bir joyda ushlab turish qobiliyati juda past;
- Bola muntazam ravishda shifokor ko'rigidan o'tishi va kerakli muolajalarni olib turishi lozim;
- Bola jismonan tengdoshlaridan orqada qoladi;

- Daun sindromli bolasi bor ota-onalarni topish va ular bilan muloqot qilish har tomonlama yengillik keltiradi;
- Daun sindromiga chalinganlar uchun ishlab chiqilgan maxsus reabilitatsiya dasturlarini topib, ishtirok etish tavsiya etiladi;
- Boshqa bolalar bilan o'yin maydonchalariga, kafelarga, bog'larga borishni o'rganish yaxshi natija beradi;
- Bola uyalmaslikni o'rganishi kerak;
- Bolani jamiyatdan yashirmay, moddiy va ijtimoiy yordam so'ragan ma'qul;

Daun sindromi kamdan-kam uchraydigan patologiya emas — u o'rtacha 700 ta tug'ilishdan bitta holatda kuzatiladi. Hozirgi vaqtda prenatal tashxis tufayli, Daun sindromi bo'lgan bolalar tug'ilishining chastotasi har 1100 holatdan 1 tagacha kamaygan, chunki homila kasalligi haqida xabar topgach, abortga murojaat qilinadi. Har ikki jinsdagi homilada ham anomaliya uchrashi ehtimoli bir xil bo'ladi.

Xalqaro Daun sindromiga chalingan odam kuni birinchi marta 2006-yil 21-mart kuni Jeneva universitetidan yunon genetigi Stilianos Antonarakisa tashabbusi bilan nishonlandi. Kun va oy juftlik raqami va xromosomalar soniga qarab tanlangan.

Turli hollarda Daun sindromi bo'lgan bolalarning kognitiv rivojlanishi sezilarli darajada farq qiladi. Hozirgi kunda tug'ilishdan oldin bolaning o'zlashtirishi va jismoniy rivojlanishi qanchalik yaxshi bo'lishini oldindan aniqlab bo'lmaydi. Optimal usullarni aniqlash erta aralashuv yordamida tug'ilgandan keyin amalga oshiriladi. Har bir bola keng imkoniyatlarga ekanligi bois, maktabda ularning standartlashtirilgan ta'lim dasturidagi muvaffaqiyatlari sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Daun sindromi bo'lgan bolalarda mavjud bo'lgan o'zlashtirish muammolari sog'lom bolalarda bo'lishi ham mumkin, shuning uchun ota-onalar farzandlarini oddiy maktablarga berishga harakat qilishsa bo'ladi.

Ko'p hollarda bolalar nutq bilan bog'liq muammolarga duch kelishadi. So'zni anglash va uning talaffuz etish orasida ma'lum bir kechikish kuzatiladi. Shuning uchun, ota-onalar bolani logopedga olib borishi tavsiya etiladi.

Nozik harakat qobiliyatlari rivojlanishda kechikadi va boshqa harakat qobiliyatlaridan sezilarli darajada ortda qoladi. Ba'zi bolalar ikki yoshdan boshlab, ba'zilari esa 4 yoshligida yurishni boshlashlari mumkin. Odatda ushbu jarayonni tezlashtirish uchun fizioterapiya buyuriladi. Ko'pincha nutq va kommunikativ ko'nikmalarning rivojlanish tezligi kechikadi va bu eshitish muammolarini aniqlashga yordam beradi. Agar ular mavjud bo'lsa, bu erta aralashuv yoki eshitish asboblari belgilash orqali tuzatiladi. Daun sindromi bo'lgan bolalar maktabda odatda maxsus sinflarga bo'linadi. Buning sababi ularda o'rganish qobiliyatining pastligi va tengdoshlaridan ortda qolish ehtimoli.

Hozirgi vaqtda sindromli bolalarni tarbiyalash va o'qitish muammolari pedagogika va psixologiyada juda muhimdir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Daun sindromi bo'lgan bolalarning tug'ilish chastotasi 800 yoki 1000 tadan 1 tani tashkil qiladi. Aqliy va jismoniy yetishmovchilik tufayli ular sog'lom tengdoshlaridan farqli o'laroq, maxsus yordamisiz jamiyatda hayot va oddiy yashash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni osongina o'zlashtira olmaydi.

Shu bois ta'lim va tarbiyaning ixtisoslashtirilgan usullarini ishlab chiqish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday bolalarning ruhiyati o'ziga xos sistemani aks ettirib, turli nuqsonlar va rivojlanishda orqada qolishlar to'laligicha faoliyatning ruhiy jarayonlariga ta'sir etadi. Bu holat idrokka ham taalluqlidir. Bu bolalarni umumiy psixologik xususiyatlarini hisobga olib o'quv dasturlari va darsliklar tuziladi, maxsus usullar ishlab chiqiladi va sinflarda korreksion ishlar olib boriladi.

Dunyoda tug'ilgan har bir inson yashash huquqiga ega va jamiyatning boshqa a'zolarining maqsadi har bir insonning, shu jumladan genetik nuqsonlari bo'lgan bolalarning to'liq huquqli shaxs bo'lishiga yordam berishdir. Zero, bu zamonaviy jamiyatning sivilizatsiyasi va insoniyatining ko'rsatkichidir.

Daun sindromi va tarbiya va ta'lim muammolari, asosan, ruhiy rivojlanishning boshqa og'ishlari va buzilishlari bilan bir qatorda defektologiya doirasida o'rganiladi. Daun sindromli bolani tarbiyalash uning ota-onasi uchun juda jiddiy sinovdir. Bunday bolalarning kayfiyati tez-tez o'zgarib turadi, bu esa yaqinlarini muvozanatdan chiqaradi. Daun sindromli bolalarni tarbiyalash ularning rivojlanishining har bir bosqichida hisobga olinishi kerak.

Daun sindromi bo'lgan bolalar o'qitishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin:

- 1) motor rivojlanishidagi kechikish;
- 2) eshitish va ko'rish bilan bog'liq bo'lgan muammolar;
- 3) nutqni rivojlantirish bilan bog'liq muammolar;
- 4) zaif qisqa muddatli eshitish xotirasi;
- 5) konsentratsiyaning qisqaroq davri;
- 6) yangi tushuncha va ko'nikmalarni o'zlashtirish va yodlashda qiyinchiliklar;
- 7) umumlashtirish, asoslash va isbotlash qobiliyati bilan bog'liq qiyinchiliklar;
- 8) ketma-ketlikni (harakat, hodisalar, ob'ektlar va boshqalar) o'rnatishdagi qiyinchiliklar;
- 9) og'zaki bo'lmagan vazifalarni bajarishdagi qiyinchiliklar (ob'ektlarni tasniflash, hisoblash operatsiyalari va boshqalar);
- 10) diqqatning beqarorligi.

Daun sindromiga chalingan bolani o'qitish va tarbiyalashning asosiy vazifasi – bolani imkon qadar mustaqil hayotga tayyorlash. Uni jamiyatdan ajratmaslik. Sevgi va

g'amxo'rlik unga barcha qiyinchiliklarni yengib o'tishga va to'liq hayot kechirishga yordam beradi.

Daun sindromi kasalligi ruhiy imkoniyati cheklanganlikning eng ko'p uchraydigan shakllaridan biri. Dunyo bo'yicha o'rtacha har 55 boladan birida ushbu kasallikning u yoki bu turi kuzatiladi. Bunday tashxis qo'yilganlar ko'pincha o'z olamida yashaydi, o'ziga xosligi bois jamiyatdan uzilib qoladi. Yakkalanib qolish yoki faqatgina o'ziga o'xshaganlarning qurshovida bo'lish Daun sindromining yanada og'irlashishiga sabab bo'ladi. "Quyosh bolalari" deya ta'riflanuvchi Daun sindromli bolalar doim hayotdan xursanddek, odamlarga kulib boqsada, ular boshqalarga nisbatan ko'proq mehr-muhabbatga, e'tibor va ko'makka muhtoj. Tushkunlikka tushmaslik lozim. Bunday bolalar, boshqa bolalar kabi, ota-onalarini juda yaxshi ko'radilar va ularning mehriga muhtoj bo'ladilar.

Ular juda mehribon, sabrli va oqko'ngil. Odamlarga hamisha kulib boqishadi. Hech qachon yolg'on gapirishmaydi, hammani birdek yaxshi ko'rishadi. Atrofdagilarni 60 daqiqa ichida 60 marta quchoqlashi mumkin. O'z olamlarida yashashadi. Ular — "quyosh bolalari".

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. G'oziyev E. Umumiy psixologiya: darslik. 1, 2-kitob. – T., 2002.
2. Po'latova P. M. Maxsus pedagogika, Oligofrenopedagogika "G'afur G'ulom". – T., 2005.
3. L. R. Mo'minova, M. U. Xamidova, Maxsus psixologiya: o'quv qo'llanma, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, – T., 2022.
4. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000.
5. P. M. Po'latova, Maxsus pedagogika (darslik) – T., "Fan va texnologiya" 2014.